

TILLARNI O'RGANISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING AHAMIYATI

Guliston davlat pedagogika instituti

*O'qituvchisi: **Berdikulova Mahbuba***

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

*talabasi **Abdurashidova Farangiz Baxtiyor qizi***

farangizabdurashidova43@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, ijtimoiy tarmoqlarning chet tillarini o'rganishdagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning til o'rganuvchilar uchun yaratayotgan imkoniyatlari, muloqot muhiti va motivatsiyaga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, Facebook, Instagram, Telegram va YouTube kabi platformalardan ta'lim maqsadlarida foydalanishning afzalliklari hamda metodik tavsiyalar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, til o'rganish, raqamli ta'lim, muloqot, zamonaviy yondashuv, motivatsiya, metodika.

Аннотация

В данной статье анализируются роль и эффективность современных информационных технологий, в частности социальных сетей, в изучении иностранных языков. Освещаются возможности, создаваемые социальными сетями для изучающих язык, их влияние на коммуникативную среду и мотивацию. Также обосновываются преимущества использования таких платформ, как Facebook, Instagram, Telegram и YouTube, в образовательных целях и даются методические рекомендации.

Ключевые слова: социальные сети, изучение языков, цифровое образование, общение, современный подход, мотивация, методика.

Annotation

This article analyzes the role and effectiveness of modern information technologies, particularly social networks in learning foreign languages. It highlights the opportunities created by social networks for language learners, as well as their impact on the communication environment and motivation. Furthermore, the advantages of using platforms such as Facebook, Instagram, Telegram, and YouTube for educational purposes are substantiated and methodical recommendations are provided.

Keywords: social networks, language learning, digital education, communication, modern approach, motivation, methodology.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini bilish shaxsning kasbiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omilga aylandi. An'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar til o'rganish jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar nafaqat ko'ngilochar vosita, balki ulkan ta'limiy resursga ham aylandi. Mazkur maqolaning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarning tillarni o'zlashtirishdagi ahamiyatini va ulardan samarali foydalanish usullarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilishdir.

Til o'rganishda eng katta to'siqlardan biri – bu tabiiy muloqot muhitining yetishmasligidir. Ijtimoiy tarmoqlar bu muammoni bartaraf etishda quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

*Birinchi*dan, *tabiiy muloqot* (Authentic Communication): O'rganuvchilar dunyoning istalgan nuqtasidagi ona tili egalari (native speakers) bilan bevosita muloqot qilish imkoniga ega bo'ladilar.

*Ikkinchi*dan, *multimedia resurslari*: Qisqa videolar (Reels, TikTok), audio xabarlar va vizual postlar tilni eshitish va ko'rish orqali osonroq qabul qilishga yordam beradi.

*Uchinchi*dan, *doimiy yangilanish*: Til jonli hodisa bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jargonlar, neologizmlar va jonli so'zlashuv iboralarini tezkorlik bilan yetkazib beradi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda turli xil platformalar mavjud va ularning o'ziga xos ta'limiy funksiyalari ham bor. Masalan, Telegram, YouTube, Facebook, Instagram va boshqalar.

- ❖ *Telegram*: Maxsus kanal va guruhlar orqali lug'at boyligini oshirish, testlar yechish va audio kitoblarni tinglash uchun qulay.
- ❖ *YouTube*: Murakkab grammatik qoidalarni vizual tarzda tushuntiruvchi darsliklar va podkastlar manbai.
- ❖ *Instagram va TikTok*: Qisqa, lo'nda va qiziqarli videolar orqali til o'rganuvchida "mikrota'lim" (micro-learning) ko'nikmasini shakllantiradi.
- ❖ *Facebook*: Turli xalqaro qiziqish guruhlari orqali yozma nutqni rivojlantirish va munozaralarda qatnashish imkonini beradi.

Qolaversa, ijtimoiy tarmoqlar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Chunki, ijtimoiy tarmoqlar til o'rganishda nafaqat axborot manbai, balki "raqamli lingvistik laboratoriya" vazifasini o'taydi. An'anaviy darsliklardan farqli o'laroq, bu tarmoqlar o'rganuvchiga "jonli til" (slang, idiomalar, qisqartmalar) bilan ishlash imkonini beradi. Bu jarayonda o'rganuvchi "Input" (ma'lumot qabul qilish) va "Output" (ma'lumot uzatish) muvozanatiga erishadi. Masalan, xorijiy tildagi postga izoh yozish yoki qisqa video xabar qoldirish orqali o'rganuvchi o'z fikrini ixcham va tushunarli bayon etish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bu esa akademik muhitda ko‘p kuzatiladigan "nutqiy turg‘unlik"ni yengishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tillarni o‘rganishda yana bir muhim omillardan biri bu zamonaviy yondashuvlardir. Misol uchun, juda ko‘p o‘qituvchilar va self-study qilib o‘qiyotgan talaba yoshlar tomonidan qo‘llanayotgan “Shadowing” texnikasi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rganishda quyidagi zamonaviy metodlar samarali hisoblanadi:

- ❖ Gamifikatsiya (O‘yinlashtirish): Interaktiv o‘yinlar va tanlovlar orqali tilni qiziqarli o‘zlashtirish; bu bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ko‘proq e‘tiborini jalb qilishga yordam beradi.
- ❖ Shadowing (Soyalash): Videolardagi nutqni takrorlash orqali talaffuzni to‘g‘rilash; bu bolalar va talabalarda nutqini rivojlantirish va talaffuzini chiroyli bo‘lishiga va ravon hamda xatolarsiz gapirishiga yordam beradi.
- ❖ Peer-to-peer (Tengdoshdan-tengdoshga): O‘zaro tajriba almashish va xatolarni birgalikda tuzatish; bu talabalarda, asosan, tajriba almashishga va boshqalarni imtixon jarayonlarida baholay olishga yordam beradi.

O‘z navbatida shuni ham aytish kerakki, ijtimoiy tarmoqlarda til o‘rganuvchilar orasida “Effektiv filtr” gipotezasi degan tushuncha ham mavjud. Bunga misol tariqasida Stiven Krashenning nazariyasini oladigan bo‘lsak.

Tilshunos olim Stiven Krashenning "Effektiv filtr" nazariyasiga ko‘ra, qo‘rquv va hayajon past bo‘lgan muhitda til o‘rganish samaraliroq kechadi. Ijtimoiy tarmoqlar o‘rganuvchi uchun shunday "xavfsiz hudud"ni yaratadi: bu yerda xato qilinganda darsxonadagidek qat‘iy jazolanmaydi yoki tanqid qilinmaydi. Natijada, o‘rganuvchida tilga nisbatan qiziqish va ichki motivatsiya ortadi. Ijobiy fikrlar va xalqaro do‘stlar bilan muloqot o‘rganuvchini ko‘proq o‘qish va izlanishga undovchi ijtimoiy rag‘bat vazifasini o‘taydi.

Shuningdek, masalaning ikkinchi tomonini oladigan bo‘lsak, ya‘ni ijtimoiy tarmoqlardagi mavjud muammolar va ba‘zi cheklovlar.

Barchaga birdek ravshanki, ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari bilan birga, ba‘zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan, vaqtni noto‘g‘ri sarflash.

Aytaylik, talaba ijtimoiy tarmoqlar orqali til o‘rganayotgan vaqtida o‘zining qimmatli vaqtini noto‘g‘ri va nojo‘ya narsalarga sarflasa uning til o‘rganishga bo‘lgan xohishi yo‘qoladi. Quyida ijtimoiy tarmoqlarning bir nechta kamchiliklari keltirilgan.

- *Ma‘lumotlarning tartibsizligi*: Haddan tashqari ko‘p axborot o‘quvchining chalg‘ishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- *Akademik nutqning pasayishi*: Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq norasmiy uslub qo‘llanganligi sababli, o‘quvchi rasmiy yozishmalarda xato qilishi mumkin.
- *Vaqtni noto‘g‘ri sarflash*: Ta‘limiy kontentdan ko‘ngilochar kontentga o‘tib ketish xavfi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til o‘rganuvchi uchun beqiyos imkoniyatlar eshigidir. Ular o‘rganish jarayonini qiziqarli, interaktiv va qulay qiladi. Biroq, kutilgan natijaga erishish uchun ushbu platformalardan foydalanishda tanqidiy yondashuv talab etiladi. O‘qituvchi va murabbiylar talabalarni ijtimoiy tarmoqlardagi sifatli va ishonchli ta’limiy resurslarga yo‘naltirishi lozim. Kelajakda raqamli ta’lim va ijtimoiy tarmoqlar integratsiyasi chet tillarini o‘zlashtirish samaradorligini yanada oshirishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kasper, G. (2001). Classroom Research on Interlanguage Pragmatics.
2. Lomicka, L., & Lord, G. (2009). The Next Generation: Social Networking and Online Collaboration in Foreign Language Learning.
3. Zokirov, M. (2022). Masofaviy ta’limda axborot texnologiyalari.
4. www.researchgate.net
5. www.academia.edu